

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TIJORATLASHTIRISH JARAYONLARI VA TEXNOLOGIYALAR TRANSFERINI SHAKLLANTIRISH

**Eshov Mansur Po'latovich**

Alfraganus University NOTT,

“Menejment va marketing” kafedrası mudiri i.f.d., prof.,

E-mail: eshov.mansur@mail.ru

### Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalaridagi tijoratlashtirish faoliyatining mazmuni, uni tashkil etish va amalga oshirish, tijoratlashtirish jarayonlarida texnologiyalarning transfer tizimini shakllantirish yo'llari, tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, raqamli va innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarini tijoratlashtirish va texnologiyalar transferini amalga oshirish faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik universiteti, texnologiyalar transferi, tijoratlashtirish, oliy ta'lim muassasasi, innovatsion faoliyat, ishlanma, mexanizm, tadqiqotlar, intellektual salohiyat.

### Аннотация

В статье раскрыто содержание деятельности по коммерциализации в высших учебных заведениях, ее организация и осуществление, пути и принципы формирования системы трансфера технологий в процессе коммерциализации. Также были разработаны рекомендации по реализации коммерциализации высших учебных заведений и трансфера технологий в условиях цифровой и инновационной экономики.

**Ключевые слова:** Университет предпринимательства, трансфер технологий, коммерциализация, вуз, инновационная деятельность, развитие, механизм, исследования, интеллектуальный потенциал.

### Annotation

The content of the commercialization activity in higher education institutions, its organization and implementation, the ways and principles of the formation of the technology transfer system in the commercialization process are covered in the article. Also, recommendations were developed on the implementation of the commercialization of higher education institutions and the transfer of technologies in the conditions of the digital and innovative economy.

**Keywords:** University of entrepreneurship, technology transfer, commercialization, higher education institution, innovative activity, development, mechanism, research, intellectual potential. (must switch to English).

### KIRISH

Jahonda tobora o'sib borayotgan raqobat kurashi davlatlar va mintaqalarni o'z iqtisodiy rivojlanishlariga yondashuvlarni qayta ko'rib chiqilishini taqozo qilmoqda. Oxirgi bir necha o'n yilliklar mobaynida o'ziga katta diqqat-e'tibor qaratayotgan

tadbirkorlik universitetlari o'z faoliyatining asosiy mexanizmlaridan yana biri sifatida texnologiyalar transferi va tijoratlashtirishni dasturilamal qilib oldilar. Hozirgi paytda tadbirkorlik universitetlari jahon bo'ylab keng miqyosda tarqalib, bu yangi rusum vaqt o'tgan sayin, oliy ta'lim muassasalarida yanada ko'proq qiziqishlar uyg'otmoqda – sababi, ular texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish orqali moliyaviy masalalarni maksimal hal qilish imkonini yaratmoqda.

O'zbekiston respublikasida ham universitetlarni hozirgi zamon talablariga javob beradigan tarzda rivojlantirish, ularning ilmiy-innovatsion faoliyatini kuchaytirish bilan ilmiy ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish bosqichida ilk qadamlar bosilmoqda. Shuningdek, Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida universitet 3.0 modeli asnosida tadbirkorlik universitetlarini tashkil etish, shu tariqa oliy ta'lim tizimida turli xil ta'lim darajalaridagi universitetlarni ichida ta'lim klasterlarini shakllantirishdan iborat bo'lgan istiqbolli rejalashtirilgan.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon oliy ta'lim amaliyotida tadbirkorlik университети texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish jarayonini amalga oshirishining xususiyatlari, uning asosiy konseptual masalalari va joriy qilishda yuzaga keladigan masalalarni hal qilish bo'yicha fikr-mulohazalar Bepton P. Klapk, L.A. Bokov, I.M. Gaynutdinova, L. Li Min, A.O. Gpudzinckiy, A.YE. Gutkevich, N.P. Ivashenko, I.V. Ivinckaya, L.V. Kobzeva, L.C. Mazelic kabi bir qator uzoq xorijlik va MDH davlatlarining ko'zga ko'ringan tadqiqotchi-olimlari tomonidan etib o'tilgan. O'zbekistonlik olimlardan C.A.Ucmonov, E.G'affapov, G.Mamajonovlar ham tadbirkorlik universiteti negizida ilm-fan va innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish yo'llari tadqiq etilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion faoliyat mahsulotlarini tijoratlashtirish tizimi nafaqat tijoratlashtirish jarayonining o'zini, balki transfer jarayonini ham baholashdan iborat bo'ladi. Transfer qilish metodi va mexanizmlari to'g'ridan-to'g'ri tijoratlashtirish obyektlarini sotish strategiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish strategiyasida optimallashtirilishi va aks ettirilishi, shuningdek transfer qilish shart-sharoitlari ham tadqiq etilishi zarurdir.

Oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik universiteti negizida ilm-fan va innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish quyidagilar bilan tavsiflanadi:


tadbirkorlik universiteti texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotining tezkor o'sish sur'atlarini ta'minlay oladi va bu jarayonlarni jadallashtiradi;

tadbirkorlik universiteti texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish bosqichlari yordamida xorijdan moliyalashtirishga bog'liq bo'lmaydi va moliyaviy resurslardan foydalanish erkinligiga ega bo'ladi;

tadbirkorlik universiteti ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga mo'ljallangan yangiliklarni transfer qilish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiyalar transferi va tijoratlashtirish jarayonlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik universitetlari innovatsion muassasalar ilmiy xodimlarining kuchli darajada to'planishi bilan tavsiflanadi hamda talabalar, professor-o'qituvchilar, dotsentlar, professorlar hamda olimlarni o'zlarining innovatsion korxonalarini tashkil etishga yoki ularda turli xil stipendiyalar va grantlar hisobiga ishtirok etishga motivatsiyalaydi[1].

Texnologiyalar transferi ishlanmani ro'yobga chiqarish samaradorligining maqsadini ko'zlamaydi, balki bu maqsadga erishish uchun dastak bo'lib hisoblanadi (1-rasm).



**1-pacm. Texnologiyalar transferini amalga oshirish mexanizmi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Mualliy ishlanmasi

Tijoratlashtirish innovatsion jarayonlarning eng muhim elementi bo'lib hisoblanadi. Texnologiyalarni tijoratlashtirish – bu ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat natijalarini tovarga aylantirish va ularni sanoat miqyosida muvaffaqiyatli sotishdir.

Ta'kidlash kerakki, “innovatsiyalarni tijoratlashtirish” tushunchasi milliy iqtisodiy atamashunosligimizda nisbatan yaqin yillarda paydo bo'lgan bo'lib, jamiyatimizda kishilar faoliyatining ko'pchilik sohalaridagi bozor munosabatlariga qayta yo'naltirilish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bu atama ko'pincha shunga o'xshash yana bir atama – “innovatsiyalar (yangiliklar, mahsulotlar, texnologiyalar) transferi” atamasi bilan jips aloqadorlikda qo'llanilib, garchi bunda “tijoratlashtirish” va “transfer” so'zlarining mazmuni turlicha bo'lsa-da, unga unchalik ahamiyat berilmaydi. UNCTAD ekspertlarining ta'rifiga ko'ra texnologiyalarning uzatilishi (transferi) deganda “huquqiy shaklidan qat'iy nazar asosiy maqsadi yoki maqsadlaridan biri sanoat mulkiga huquqlarni litsenziyalash yoki boshqa yo'l bilan berish, texnologik xizmatlarning sotilishi yoki istalgan boshqa turda uzatilishi sanaladigan tomonlar orasidagi operatsiya tushuniladi[2].

Mamlakatimizdagi ilmiy ishlanmalar mualliflari va tadqiqotchi olimlarning jahon texnologiyalar bozoriga jalb etila borishi sharoitlarida texnologiyalar transferi bo'yicha samarali faoliyat yuritadigan tuzilmalar vositasida texnologiyalarning ikki tomonlama oqimi ro'y berishi zarur. Bugungi kunda ko'plab innovatsion loyihalarga talabning mavjud emasligi sharoitida texnologiyalar transferi oqimlarini ularning xorijga uzatilishi sifatida yoki istiqbolda milliy innovatsion loyihalarni amalga oshirish vositasi sifatida olib qaralishi kerak. Lekin shunga qaramasdan, global iqtisodiyotning hozirgi zamon dunyosida texnologiyalarning xalqaro transferi va xalqaro hamkorlikni tashkil etish istalgan iqtisodiy tizimlarning ko'tarilishi va tezkor o'sishi uchun tayanch asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasasida innovatsion jarayonlarni boshqarish texnologiyalar transferi obyektlarini shakllantirish, ulardan foydalanish va ularni takror hosil qilish haqida ma'lum bir tasavvurlar mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Alohida olingan bir oliy ta'lim muassasasi darajasida texnologiyalar transferi obyektlarini boshqarish qo'shimcha moliyaviy resurslarni izlab topish, sarf-xarajatlarda tejamkorlik qilish, oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish hajmlarini oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun bilimlar va axborotlarni samarali tarzda hosil qilish va ulardan samarali foydalanish usullarini izlab topish bilan bog'liqdir[3].

Oliy ta'lim muassasasi texnologiyalarini transfer qilish obyektlari – bu muassasa personalining individual intellektual salohiyati jamlanmasi bo'lib, ular oliy ta'lim muassasasi uchun sinergetik samarani kafolatlaydi. Intellektual mulk subyektning rivojlanish asosi va sharti bo'lib sanaladi. O'z navbatida har bir xodimning shaxsiy intellektual salohiyati – bu uning bilimlari, ko'nikmalari, ijodkorlikka va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan qobiliyatlaridir.

Texnologiyalar transferi obyektlarini samarali boshqarish va ulardan faol foydalanish zamonaviy tovar va xizmatlarning yaratilishiga yo'naltiriladi – bunda ular bozor talablariga to'la javob berib, sezilarli darajadagi raqobat ustunliklarini beradi va subyektlarga, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalariga ham o'zlarining strategik

maqsad va vazifalariga erishishni ta'minlaydi. Tovar va xizmatlarni yaratish bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlariga real tarzda qo'shiladigan va o'z egasiga daromad keltiradigan barcha bilim, mahorat, ko'nikma, ijodiy imkoniyatlar intellektual kapital shaklida o'rta chiqadi[1].

Oliy ta'lim muassasasida texnologiyalar transferi obyektlarini boshqarish tizimini yaratish va uni rivojlantirish, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, natijaviylikni baholash va kelgusida boshqaruvni tashkil etishni takomillashtirish yo'llarini izlab topish talab etiladi.

Fikrimizcha, intellektual mulkning uchta asosiy obyektlarini – "ixtiro", "asar", hamda "kashfiyot"ni ajratib ko'rsatish kerak bo'ladi. Bularning barchasi intellektual mulk obyektining yaratilishiga olib kelgan insoniyatning tajribaviy, ilmiy, badiiy va ishlab chiqarish sohalaridagi intellektual yutuqlariga nisbatan yangilikning o'sib borishini ko'rishimiz mumkin. Mana shunga bog'liq holda, "intellektual mulk" atamasini inson ijodining uchta asosiy – ilm-fan, san'at va ishlab chiqarish sohalarida, ularga ma'lum bir shaxsiy yoki korporativ huquqlarni qo'lga kiritish bilan yangilik elementlarini kiritib borishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, birinchidan texnologiyalar transferi va ularni tijoratlashtirish jarayoni o'z samarasini berishi uchun oliy ta'lim muassasalari kim ularning texnologiyalariga xaridor sifatida chiqishini kutib o'tirmasdan, o'zlari ham spin-off kompaniyalar va innovatsion kichik korxonalarini tashkil etish yo'li bilan ishlab chiqarishga va bozorga faol kirib borishlarini ta'minlash kerak. Ikkinchidan, texnologiyalar transferining samaradorligi bevosita ularning tijoratlashtirilishi bilan bog'liqligi nuqtai-nazarida oliy ta'lim muassasalarida biznesni tashkil etish va ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha mutaxassislarini tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish lozim. Uchinchidan, innovatsion faoliyat mahsulotlarini tijoratlashtirishda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, buyurtma bo'yicha tadqiqot va ishlanmalarni bajarish, ilmiy grantlar bo'yicha fundamental tadqiqotlarni bajarish, loyiha ishlarini (amaliy, innovatsion) bajarish, litsenziyalarni sotish, OTM ishtirokida korxonalar yaratish, ilmiy tadbirkorlik(OTM ishlanmalarini korxonalar orqali sotish)ni yo'lga qo'yish, yoshlar tadbirkorligini amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Голицина И. Н. **Технология Образования 3.0 в современном учебном процессе** // Образовательные технологии и общество. 2014. Т. 17, № 3.
- 2.Мартынов Б.В. **Принципы и методы адаптации образовательной организации в условиях изменений** // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2017. № 7-2.
3. Барков А. В., Гришина Я. С. **«Университет 3.0»: правовая модель участия вуза в инновационном предпринимательстве** // Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. Сер: Гуманитарные и общественные науки. 2017. №